

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA SUG'URTA AGENTLARI FAOLIYATINI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Jamolova Xonzoda O'rolboy qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Moliya va buxgalteriya hisobi" fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish omillaridan biri hisoblangan agentlar faoliyatining qanchalik dolzarblii, uning takomillashtirishdagi istiqbolli yo'llar tahlil qilinadi va chet el tajribasiga asoslangan holda bu boradagi samarali yo'llar tanlab olinadi.

Kalit so'zlar: sug'urta bozori, sug'urta agenti, agentlik faoliyati, moliyaviy barqarorlik, xorij tajribasi.

Kirish: Sug'urta agentlariga "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunda quyidagicha ta'rif beriladi: Sug'urtalovchining nomidan va topshirig'iga binoan sug'urta shartnomasini tuzishni hamda uning bajarilishini tashkil etishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy yoki yuridik shaxs sug'urta agentidir.

Sug'urtalovchining boshqaruvi organlari rahbarlari va xodimlari sug'urta agenti sifatida ish yuritishi mumkin emas.

Sug'urta agenti o'z faoliyatini sug'urtalovchilar bilan tuzilgan topshiriq shartnomalari (agent bitimlari) asosida amalga oshiradi.

Sug'urta agenti faqat o'zi bilan topshiriq shartnomasi (agent bitimi) tuzgan sug'urtalovchining reyestriga kiritilganidan keyin o'z faoliyatini amalga oshirishi mumkin.

Quyidagilarga:

-sug'urta agentining tegishli turdag'i sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lmagan sug'urtalovchilar nomidan sug'urta shartnomalari tuzishiga;

-agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida sug'urta bo'yicha sug'urta agentining O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda ro'yxitga olinmagan chet el sug'urta tashkilotlari nomidan sug'urta shartnomalari tuzish bilan bog'liq bo'lган vositachilik faoliyatiga yo'l qo'yilmaydi.

Jismoniy shaxs bo'lган sug'urta agenti o'z nomiga, yaqin qarindoshlari (ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka va opa-singillari, eri, xotini, farzandlari, shu jumladan farzandlikka olinganlar, bobosi, buvisi, nevaralari, shuningdek erining, xotinining ota-onasi, tug'ishgan hamda o'gay aka-uka va opa-singillari) nomiga sug'urta shartnomalari bo'yicha hujjatlar yozishga, shuningdek o'z foydasiga sug'urta shartnomalari tuzishga hamda bunda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta agenti sifatida ish yuritishga haqli emas[1].

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Sug‘urta agenti mijozlarga sug‘urta polisini sotish jarayonida, ularga aslida mijozlarning o‘zi bilmaydigan sug‘urta imkoniyatlarini, manfaaat va foydali tomonlarini to‘liq tushuntirib berishi bilan ishonchksizlikni bartaraf etishi mumkin. Ayni buni faqatgina internet saytlarida berilgan ma’lumotlar asosida to‘ldirib bo‘lmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqolada sug‘urta bozorida sug‘urta agentlarini rivojlantirish borasida jahon tajribasiga tayangan holda O‘zbekistonda ham uni kengaytirish, bundan mamlakatimiz iqtisodiyotiga ko‘riladigan manfaatlarni, foya va afzalliklarni qolaversa bu yo‘ldagi qiyinchilik, kutilishi mumkin bo‘lgan muammolar haqida fikr mulohazalar yuritish uchun vazifalar belgilab olindi. Tadqiqot jarayonida empirik tadqiqotni kuzatish, induksiya, deduksiya, jamlash va ma’lumotlar manbalari o‘rtasidagi aloqalarni aniqlash usullaridan va nazariy tadqiqotning analiz va sintez usullaridan foydalanildi.

Taxlil va natijalar

Sug‘urta bozorida sug‘urta agentlarining ahamiyati, faoliyati tufayli kompaniyalar o‘z faoliyatida barqarorligini ta’minlashga erishishadi. Shu maqsadda O‘zbekiston sug‘urta bozorida ham agentlik faoliyatini rivojlantirish uchun hukumatimiz tomonidan turli amaliy ishlar va qonuniy ta’sirlar doirasida turli islohatlar olib borilmoqda. Xususan “Sug‘urta faoliyati to‘g‘risida ”gi qonunda agentlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va majburiyatlari aniq belgilab qo‘ylgan[2].

Agentning asosiy daromadi sug‘urta xizmatlarini sotishdan komission mukofot tashkil etadi:

Majburiy sug‘urta turlari bo‘yicha komission mukofot quyidagini tashkil etadi:

Transport vositasi egalarining javobgarligini sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha – agentlik mukofot miqdori sotilgan sug‘urta xizmatining 22 % gacha;

Ish beruvchining javobgarligini sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha – agentlik mukofot miqdori sotilgan sug‘urta xizmatining 22 % gacha;

Tashuvchining javobgarligini sug‘urta qilish shartnomalari bo‘yicha – agentlik mukofot miqdori sotilgan sug‘urta xizmatining 22 % gacha.

Ihtiyoriy sug‘urta turlari bo‘yicha agentlik mukofot miqdori sotilgan sug‘urta xizmatining 25 % gacha belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi sug‘urta bozorining tuzilishi (2023-yil yakuni)

| Sug‘urta bozori tuzilishi | 31.12.2022 | 31.12.2023 | O‘zgarish (+/-) |
|--|----------------|----------------|------------------|
| Sug‘urta tashkilotlari soni <i>shu jumladan hayot sug‘urtasi bo‘yicha</i> | 41 | 38 | -7,3% |
| Sug‘urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali (mln. so‘mda) | 1 884 111 | 2 298 572 | +22,0% |
| Sug‘urta brokerlari soni | 7 | 8 | +14,3% |
| Aktuariylar soni | 5 | 5 | 0% |
| Sug‘urta agentlari soni <i>shu jumladan yuridik shaxslar</i> | 9 155 2 625 | 4 736 1 711 | -48,3% -34,8% |
| To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi a’zolari bo‘lgan sug‘urta tashkilotlarining soni | 25 | 26 | +4,0% |

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

1-jadval

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosiga ko'ra 2023-yil yakuniga ko'ra sug'urta faoliyatini takomillashtirish uchun o'tkazilgan islohatlar natijasi shuni ko'rasatadiki, bozor talablariga munosib kelmaydigan bozor ishtirokchilari xususan agentlarning hamda sug'urta kompaniyalarining ham son jihatdan qisqartirilgan[3].

Hayot va umumiy sug'urta turlari bo'yicha YaIM dagi ulushlari, mamlakatlar kesimida

| T/r | Hayot sug'uratsi bo'yicha | Kishi jon boshiga | Ummumiy sug'urta bo'yicha | Kishi jon boshiga |
|-------------|---------------------------|-------------------|---------------------------|-------------------|
| O'zbekiston | 0.17% | 3.91 | 0.52 | 12.1 |
| Turkiya | 0.95 | 21.85 | 5.2 | 119.7 |
| Qozog'iston | 1.36 | 31.24 | 2.5 | 58.5 |

2-jadval

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida, O'zbekistonda hayot sug'urtasi bo'yicha mukofotlar hajmi YAIMning 0,17 foizini tashkil etadi. Bu esa kishi boshiga o'rtacha 3,91 dollardan to'g'ri kelishini bildiradi. Taqqoslaydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich Qozog'istonda 31,24 dollarga, Turkiyada esa 21,85 dollarga yetadi[4].

Umumiy sug'urta mukofotlari hajmi YAIMning 0,52 foizini tashkil etadi va kishi boshiga o'rtacha 12,1 dollardan to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Qozog'istonda 58,5 dollarni, Turkiyada 119,7 dollarni tashkil qiladi.

AQSH tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak AQShda 927 600 litsenziyaga ega agentlik va brokerlar ishlaydi. 2023 jami 902,500 hayot va sog'liq sug'urtasi agentlari va 686,300 mult / baxtsiz hodisalar sug'urtasi agentlarini ko'rsatadi[5]. Birinchi marta sug'urta imtihonini topshirganlarning o'rtacha 57,9 foizi test sinovidan o'tadi. Sug'urta agentlari yiliga o'rtacha 51 936 dollar ishlab topadilar. Yuqorida takidlanganidek, O'zbekistonda 2023-yilning yakuniga ko'ra agentlar soni 4736 tani tashkil etib, ularning daromadlari ularning ish hajmi bilan bog'liq hisoblanadi. E'tiborli shundaki AQSHda agentlar faoliyati bu juda muhim faoliyat turi bo'lib, bu darajada ishlash uchun agentlar litsensiyaga ega, ma'lumotli shaxslardan tashkil topishi kerak. Bu AQSH da agentlar orqali sug'urta bozorining reklama dasturidek ish olib boriladi. Shuningdek , AQSHda sug'urta agentlariga qo'yiladigan talablar quyidagicha:

-komunikabellik(kirishimlilik)- turli kasb, yosh ijtimoiy guruh odamlari bilan oson, hushmuomala hamda o'ziga mos muloqot qila olish;

-reaksiya tezligi, ya'ni har qanday savolga konkret holatdan kelib chiqib tez javob berish;

-moliyaviy holat-soliq inspeksiyasi tomonidan deklaratsiya qilingan daromadlar va ularning manbalari bo'yicha e'tirozlarning mavjud emasligi;

-umumiyl madaniyat darajasi-kasbiga norasmiy yondashish, gaplarini nazorat qilish, keraksiz so'zlarni (aytaylik, xaligi , menimcha,bo'lsa kerak va boshqa)ishlatmaslik;

-so'zlaridagi to'g'ri urg'ular ;

-zararli yoqimsiz odatlarning yo‘qligi va tashqi ko‘rinish;

-muloyimlik, agar rahbariyat bilan suhbat bo‘ladigan bo‘lsa, u holda faqatgina taklifdan so‘ng o‘tirish;

-suhbat paytida suhbatdoshining so‘z va mimikasini kuzatib boorish, o‘z vaqtida to‘xtay olish(suxbatni to‘xtatish), suhbatdosh gapini bo‘lmaslik va boshqa;

-sug‘urta agentining husnixati (pocherk), turli hujjatlarni aniq, ravshan savodli xatosiz tuza olishi ham muhim.

Shuningdek AQSH tajribasiga asoson Germaniyada ham agentlik faoliyatini munosib yo‘lga qo‘yish maqsadida litsenziyalash tartibi yo‘lga qo‘yildi. Sinov davri mobaynida Germaniyada litsenziyaga ega bo‘lmagan agentlar o‘z faoliyatlarini to‘xtatishi natijasida, agentlar soni keskin tushib ketdi. Qolgan qonuniy tartiblarga munosib bo‘lgan agentlar ham kutilgandek samarali ish olib borishmagan. Natijada expertlar shunday xulosaga kelishadiki, avvalambor agentlarning shaxssan rivojlanishlari uchun ularni o‘qitish kerak deb belgilaydilar.

Xulosa va takliflar

AQSH tajribasiga asoson Germaniyada ham agentlik faoliyatini munosib yo‘lga qo‘yish maqsadida litsenziyalash tartibi yo‘lga qo‘yildi. Sinov davri mobaynida Germaniyada litsenziyaga ega bo‘lmagan agentlar o‘z faoliyatlarini to‘xtatishi natijasida, agentlar soni keskin tushib ketdi. Qolgan qonuniy tartiblarga munosib bo‘lgan agentlar ham kutilgandek samarali ish olib borishmagan. Natijada expertlar shunday xulosaga kelishadiki, avvalambor agentlarning shaxssan rivojlanishlari uchun ularni o‘qitish kerak deb belgilaydilar. Shunga ko‘ra xulosa qiladigan bo‘lsak, sug‘urta bozorining professional ishtirokchilari bozorning asosini tashkil etadi hamda ushbu faoliyatining ishslash mexanizmining boshqaruvchilari hisoblanadi. Ayni shu maqomdagagi sug‘urta bozorining ajralmas professional ishtirokchisi, sug‘urta vositachisi ya’ni agent sug‘urtalovchilarning manfaatlari uchun xizmat qilishi bilan birga, sug‘urta bozorining ahamiyati, sug‘urtalanuvchilarning sotib olishlari mumkin bo‘lgan sug‘urta mahsulotlarining ularga qanchalik ahamiyatli ekanligini, ularni moliyaviy barqarorlashuvini ta’minlashlarini tushuntirib izohlab berishda o‘z ma’suliyatlarini bajaradilar. Chet el tajribasiga asosan agentlik faoliyatining rivojlanishida agentlarning sifat darajalarini oshirish, ish samaradorligini ta’minlashga olib keluvchi omillarni takomillashtirish asosiy vazifa hisoblandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

<https://lex.uz/docs/-5739117>

<https://lex.uz/docs/-5739117>

<https://napp.uz/uz>

<https://imda.uz/uz/>

<https://www.sciencedirect.com/>